
Pandigon mahallasida obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda

♻️Tumanimizdagi har bir mahalla olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, bir-biridan go'zal, muhtasham binolarni ko'rib ko'z quvonadi.Eng ulug', eng aziz bayram arafasida tumanimizda keng ko'lamli obodlashtirish ishlari olib borilmoqda.

♻️"Pandigon" mahallasi fuqarolari ham bu borada jonbozlik ko'rsatishmoqda. Mahalla ahli o'z hududlarini tozalab, yo'laklari ta'mirlanib, fasadlari bo'yashmoqda.Eng muhimi, shu paytgacha doimiy ravishda aholining e'tirozlariga sabab bo'lib kelayotgan mahalla ichki ko'chalari aholi uchun qulay bo'lgan betonlar bilan qoplendi.

-Mahallamiz tamoman yangi qiyofa kasb etib, chinakamiga obod mahallaga aylanmoqda, buning uchun, albatta, aholimiz nomidan, avvalo, davlatimiz rahbariga, qolaversa, barcha obodonlashtirish ishlarini tizimli va sifatli amalga oshirayotgan tuman hokimi va barcha tegishli tashkilotlar mas'ullariga, issiq kunlarda ham tinimsiz mehnat qilayotgan barcha ishchilarimizga chin dildan minnatdorchilik bildiraman, deydi MFY raisi Maxsitali Mahkamov.

♻️Aholi turmush farovonligini oshirib, xalqni rozi qilish yo'lida olib borilayotgan bunday xayrli tadbirlar boshqa mahallalarda ham amalga oshirilmoqda va tumanimizning barcha mahallalari obod maskanlarga aylanadi.

2022-08-17 05:51:55